

RUSIYZABON TA'LIM OLUVCHILARGA NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI O'RGATISH USULLARI

Gulnoza Ahmedova,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti,

O'zbek xorijiy tillar va pedagogika kafedrasi pedagogika fanlari doktori (DSc)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666283>

Annatsiya. Mazkur maqolada ta'lim oluvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish asosi hisoblangan DTS va darsliklar tahlil amalga oshirilgan. Qolip gaplar og'zaki nutqiy muloqotning tashkiliy omillarini ifoda etib, dialogik nutq o'stirishning yangi so'zlar qatori yod olib o'rganiladigan qismi sanaladi. O'zbek tili amaliyotida qaysi va qancha qolip gaplar o'rgatilayotganligi, ular qay tarzda taqdim etilganligi, qanday mashq va topshiriqlar havola qilinganini aniqlashda darslik materiallari asosiy mavqeda bo'ladi.

Kalit sozlar: muomala odobi-muomala qilish axloqi, turg'un ibora-barqaror, standart ibora, qolip gaplar-nutqiy etiket, o'zbekcha mulozamat -sharqona hurmat va izzat ko'tsatish, mavqe – o'rin va vazifa.

Abstract. This article analyzes the DTS and textbooks, which are considered the basis for developing the culture of speech communication of students. Idioms represent the organizational factors of oral speech communication and are considered a part of dialogic speech development that is learned by heart along with new words. Accordingly, textbook materials play a key role in determining which and how many idioms are taught in the practice of the Uzbek language, how they are presented, and what exercises and tasks are referred to.

Key words: etiquette - manners of behavior, stable expression - stable, standard expression, idioms - speech etiquette, Uzbek courtesy - showing oriental respect and honor, position - position and duty.

Аннотация. В данной статье анализируются система обучения и учебники, которые считаются основой для развития культуры устной коммуникации у учащихся. Идиомы представляют собой организационные факторы устной коммуникации и рассматриваются как часть диалогического развития речи, усваиваемого путем запоминания вместе с новыми словами. Материалы учебников играют ключевую роль в определении того, какие и сколько идиом преподаются в практике узбекского языка, как они представлены, и к каким упражнениям и заданиям они относятся.

Ключевые слова: этикет-этика коммуникации, устойчивое выражение-устойчивое, стандартное выражение, идиомы-речевой этикет, узбекская вежливость-проявление восточного уважения и чести, положение-место и задача.

Kirish. Rusiyzabon ta'lim oluvchilarning o'zbek tilidagi dialogik nutqini o'stirish, shu jarayonda nutq madaniyatini rivojlantirishning bugungi holati ma'lum darajada o'qituvchilarning metodik jihatdan tayyorgarligiga, mavjud ta'lim vositalariga, asosan O'zbek tili" davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari, darslik materiallariga bog'liq.

Hozirgi kunda o'zbek tili o'qituvchilarining qo'lida metodik ishlar juda oz. Bular, R.A.Yo'ldoshevning "O'qituvchi" nashriyoti orqali 5000 nusxada nashr qilingan "O'zbek tili darslarida o'qituvchilar nutqini o'stirish (III –VIII sinflar)" metodik qo'llanmasi (R.A.Yo'ldoshev, 1978), oz adadda chop etilgan bir nechta monografiya (R.A.Yo'ldoshev, 2012, R.A.Yo'ldoshev, 2015). Oz adadli metodik ishlar tor doirada tarqatilgan.

Adabiyotlar sharhi. R.A.Yo‘ldoshev 2015-yilgi monografiyasida nutqiy muloqot madaniyatiga ishora qiluvchi quyidagi fikrni alohida ta’kidlaydi: “O‘zbek tili darslarida rusiyzabon o‘quvchilarga dialogik shaklda o‘zaro so‘zlashishni o‘rgatish ishlari tayyor savol-javoblarni yod oldirishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Chunki turg‘un iboraday bo‘lib qolgan qolip gaplarni mustasno etganda aksariyat luqmalar mustaqil ravishda gap tuzib aytish imkonini beradi. O‘qituvchi ana shu imkoniyatdan unumli foydalanib, darsning ta’limiy jihatini oshirishi lozim. Yod olingan savol-javoblar asosida “suhbatlashish” bilan mustaqil ravishda gap tuzib suhbatlashish orasida juda katta farq bor. Tayyor savol, unga qaytarilgan javob suhbatdoshlarda fikr uyg‘otmaydi, ularni munosabat bildirishga undamaydi. Shuning uchun suhbat bir xilda, his-tuyg‘u, shaxsiy munosabat aralashmagan holda o‘tadi. Vaholanki, darak gaplar xabar ohangidan tashqari, sevinch, tashvish, g‘azab, kinoya kabi turli his-tuyg‘u ifodalagan holda mos ohangi bilan ham aytiladi”.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko‘rinadiki, o‘qituvchilarning rusiyzabon o‘quvchilarga nutqiy muloqot madaniyatini o‘rgatish metodikasi bilan tanishish imkoniyatlari ko‘p emas. Biz maktablarda o‘zbek tili o‘qituvchilari bilan suhbatlar jarayonida bunga ko‘p marta ishonch hosil qilganmiz.

O‘zbek tilidan tasdiqlangan Davlat ta’lim standarti talabiga ko‘ra qolip gaplarni o‘rgatish zarurligi ayon bo‘ldi.

Natijalar. 1999-yili ta’lim boshqa tilarda olib boriladigan maktablar uchun o‘zbek tilidan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi” ning [3: 262–302] “Uqtirish xati” da nutqiy muloqot haqida shunday izoh beriladi: “Dasturda o‘zbekcha mulozamat va nutq etiketi bo‘yicha bilimlar berish, shuningdek, davlat tilida ish yuritish hamda bahs-munozara olib borishga o‘rgatish ham ko‘zda tutilgan” [3:264] “5-sinfda nutqiy ko‘nikmalar bo‘yicha qo‘yilgan talablar” esa quyidagicha belgilangan: “Berilgan mavzu doirasida 5-6-ta gapdan uning yuzasidan iborat matnning mazmunini tushunib, o‘z fikrini og‘zaki bayon qilib, o‘zaro fikr almasha olish. Murojaat etish, iltimos qilish, iltimosga javob kabi muomala odobiga oid iboralarni qo‘llay olish”.

Mazkur dasturdagi o‘zbekcha mulozamat va nutq etiketi bo‘yicha bilimlar berish, murojaat etish, iltimos qilish, iltimosga javob kabi muomala odobiga oid iboralarni qo‘llay olish talablaridan ma’lum bo‘ladiki, unda o‘zbek tili darslarida muomala odobi qoidalari va qolip gaplarni o‘rgatish ko‘zda tutilgan, faqat muomala odobi qoidalari nutq etiketi, qolip gaplar esa iboralar deb nomlangan. O‘zbek tilshunosligida iboralar frazeologizmlarni anglatadi. Etiket atamasi esa odob-axloq tartibi, qoidalari ma’nolarini bildiradi.

O‘qituvchi darslarni tashkil etishda birinchi navbatda “O‘zbek tili” darsliklariga tayanadi, shuni nazarda tutib, ularni mavzu nuqtai nazaridan tahlil qildik. Tahlilda quyidagi materiallarga alohida e’tibor berdik:

- 1) qolip gaplar;
- 2) muomala odobiga oid qoidalar;

3) dialogik nutq o‘stirish yuzasidan mashq va topshiriq turlari.

Qolip gaplar og‘zaki nutqiy muloqotning tashkiliy omillarini ifoda etib, dialogik nutq o‘stirishning yangi so‘zlar qatori yod olib o‘rganiladigan qismi sanaladi. “O‘zbek tili” darsliklari materiallari orasida qolip gaplar alohida bir yo‘nalishni tashkil etib, o‘quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Zero, o‘zaro so‘zlashuvda muomala odobiga ko‘ra ulardan farqlab foydalanish ustida ish olib borilar ekan, bu ishlar mavzuviylik asosida u yoki bu nutqiy vaziyat bilan bog‘lanadi, shular doirasida amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra ham o‘zbek tili amaliyotida qaysi va qancha qolip gaplar o‘rgatilayotganligi, ular qay tarzda taqdim etilganligi, qanday mashq va topshiriqlar havola qilinganini aniqlashda darslik materiallari asosiy mavqeda bo‘ladi.

Qolip gaplar turg‘un iboralariday qotma holga kelgan gaplar sanalib, o‘quvchilar ularni anglash uchun yo rus tiliga qanday tarjima qilinishini, yoki rus tilidagi qaysi adekvat muqobili qolip gap mazmunini bildirishini, to‘g‘ri qo‘llashlari uchun esa qaysi nutqiy vaziyatlarda ishlatilishini bilishlari, bu haqdagi izohlarni o‘zlashtirishlari, ular bilan bog‘liq muomala odobi qoidalaridan voqif bo‘lishlari kerak. Shu bois darsliklar tahlilida quyidagi masalalarga e‘tibor qaratildi:

- darslik sahifalarida qolip gaplarning berilishi (miqdoriy ko‘rsatkichlar);
- qolip gaplarning tarkiban o‘rganish mumkin bo‘lgan gap turlarini ifoda etuvchi so‘zlashuv replikalaridan ajratilgan-ajratilmaganligi;
- qolip gaplarning rus tilidagi tarjimasi bor yoki yo‘qligi;
- ayrim qolip gaplarning qaysi nutqiy vaziyatlarda qo‘llanishini ochib beruvchi izohlarning mavjudligi;
- qolip gaplarning o‘quvchilar bilim saviyasi va yosh xususiyatlariga mosligi, anglash va o‘zlashtirish uchun oson yoki qiyinligi;
- qolip gaplarni mustahkamlashga doir mashqlarning yoki ayrim topshiriqlarning mavjudligi;
- muomala odobiga doir ma‘lumotlarning bor yoki yo‘qligi;
- muomala odobiga doir qoidalarni mustahkamlashga doir mashq yoki ayrim topshiriqlarning berilishi.

Darslikda tanishilgan so‘zlashuv replikalarini, ular sirasida qolip gaplarni mustahkamlash maqsadida mashqlar berilgan bo‘lib, tegishli replikalarni dialogik matndan ko‘rsatish, dialogni ular bilan to‘ldirish xarakterida. Ayrim matnlar savol yoki javob bilan to‘ldirish topshirig‘iga ega. Bizningcha, so‘zlashuv replikalari tarkibi o‘rganiladigan gap turlarini ifoda etib, darslarda izchil tanishiladigan va faollashtiriladigan til materiallari sirasiga kiradi. Shu bois so‘zlashuv replikalarini o‘rganish mazmuni, metodlari, mashqlar tizimi o‘ziga xos bo‘lmog‘i, **qolip gaplarni o‘rgatishga doir** ta‘lim mazmuni va metodlari, mashqlar tizimi ulardan farqlanishi, dars jarayonida ustuvorlik kasb etishi darkor.

Ta'kidlash joizki, bu darslikda ham muomala odobiga doir ma'lumotlar ko'zga tashlanmaydi.

5-sinf darsligida o'quvchilarning bilim saviyasi va yosh xususiyatlari hisobga olinmay tanlangan qolip gaplar anchagina. Masalan, "Kechirim so'rash" [4:59] sarlavhasi ostida so'zlashuv uslubida o'quvchilar yoshiga mos kelmaydigan quyidagi gaplar berilgan: *Uzr. Aybdorman. Gunohkorman. Aybimga iqrorman. Aybimni tan olaman. Gunohimni bo'ynimga olaman. Gunohimdan o'ting.*

Darslikda "Muomala odobi" rukni ostida berilgan materiallardan qanday foydalanish kerakligi haqida aniq topshiriqlar yo'q darajada. Qolip gaplarni mustahkamlash, faollashtirishga doir mashqlar ham yo'q darajada. Aslida ushbu materiallar muomala odobini ifodalovchi materiallar emas. Ularni boshqacha ifodalash lozim ko'rinadi. Muomala odobi o'ziga xos ma'lumotlar (qoidalar) shaklida alohida bayon qilinmog'i maqsadga muvofiqdir.

R.Tolipova, M.Ochilovalarning 7-sinf uchun yaratgan "O'zbek tili" darsligida (R.Tolipova, M.Ochilova, 2003) "Muomala" sarlavhasi ostida muloqot mavzulariga oid har gal bittadan so'z izohi berilgan. Masalan, minnatdorchilik – *rahmat, tashakkur, qulluq*. Shu tarzda quyidagi kabi bir qator so'z va so'z birikmalari tushuntirilgan: *haqiqatni tasdiqlash, tasdiqlash, yetarli, do'stga murojaat, afsuslanish, taxmin qilish, o'xshatish* va boshqalar. Darslikning dastlabki nashrida 80-betdagi 8-mashqda o'quvchilarning o'z otanalari, katta yoshdagilar, o'qituvchilar va qariyalar bilan muloqotda o'zlarini qanday tutishlari haqida gapirib berish so'ralgan. Bunday topshiriqlar muomala odobi qoidalarini so'rab bilish va ularni o'zlashtirishga yordam beradi.

Mualliflar X.Muxiddinova, M.Yusupova, N.Ikromova, G.Akromovalar tomonidan 8-sinf uchun yaratilgan "O'zbek tili" darsligida (X.Muxiddinova va bosh, 2003) "Siz ham, sen ham bir og'izdan chiqadi" matni muomala odobi haqidagi nazariy ma'lumotni ifoda etadi. Bu va boshqa matnlar yuzasidan quyidagi topshiriqlar havola qilingan: 1. Maqolaga o'z munosabatingizni bildiring. 2. Sharqona odob-axloq haqida so'zlab bering. Ushbu materiallar 8-sinf darsligini quyi sinflar darsliklaridan ijobiy tomonga farqlantirgan. Matnda nutqiy muomalada sizlash va senlashning farqli jihatlari ochiladi. Kishining shirinso'zligi uning madaniyatidan dalolat berishi, muomala madaniyati kishining kimligini ko'rsatib turuvchi mezon ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur matn sharqona muloqot madaniyati haqida tushuncha hosil qiladi. Topshiriq shartlari ham o'quvchilarni muloqot madaniyati haqida kengroq fikrlashga undaydi.

Darsliklarda qolip gaplarni mustahkamlash va faollashtirishga qaratilgan maxsus mashq turlari deyarli uchramaydi. So'zlashuv replikalari sirasida tegishli replikalarni dialogik matndan ko'rsatish, dialogni ular bilan to'ldirish xarakteridagi mashqlar orqali ayrim qolip gaplar mustahkamlangan holatlar mavjud.

2010-yildan keyin yaratilgan darsliklarining ayrimlarida avvalgilariga nisbatan qolip gaplarga katta ahamiyat berilgan bo'lsa-da, ular asosan dialogik matnlarda uchrashiga qarab ajratilgan, ba'zan "Muomala odobi" sarlavhasi ostida eslab qolish topshirig'i bilan lug'at shaklida berilgan, o'quvchilarning yoshi, hayot tajribasi va bilim saviyasi yetarlicha hisobga olinmay, faol va nafaollariga qaramay kiritilgan. Qolip gaplarni o'rgatish va faollashtirish uchun xizmat qiladigan maxsus mashqlar keltirilmagan.

Xulosa. Amaldagi dasturda "O'zbek tili" Davlat ta'lim standarti talablaridan chetga chiqilgan hamda unda ta'kidlangan muloqot shakllarining ba'zilar dasturga kiritilmagan. Bu dastur asosida yaratilgan darsliklarda qolip gaplar miqdori ko'paytirilgan bo'lsa-da, ular bilan keyingi bosqichlarda asosan leksik xarakterdagi mashqlar tavsiya qilingan: qolip gaplarni ruscha tajimasiga asoslanib, uslubiy jihatdan qo'llanilish xususiyatlarini farqlagan holda mustahkamlash, etiketlarni nutqiy vaziyatlar bilan bog'lab qo'llash kabi. Ular tarkibini o'rganish mumkin bo'lgan replikalar orasida keltirilgan.

Darslikda savollarga javob berish talab etiladigan mashqlar o'qilgan matn mazmuni bilan bog'lanadi, shu mazmun doirasida muhokama yuritishni taqozo etadi. Buning ham o'z qiyinchiliklari bor. Masalan: "Jasurning xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?". Savol dialogik nutqni muhokama asosida davom ettirishga undashi mumkin: Jasurning xatti-harakatlariga shaxsiy munosabatini bildirish, tabiatni, jumladan, jonivorlarni asrash haqidagi o'z mustaqil fikrlarini aytish. Lekin bular hali tegishli so'zlar o'zlashmasdan turib, ya'ni tashkil qilinish paytiga ko'ra leksik-grammatik mashq sanaladi. Talablarda ishlatilgan ma'noga ko'ra muomala odobi (etiket] elementlari deyilganda muomala odobi qoidalarini tushunish mumkin. Ayon bo'ladiki, muomala odobi elementlari deganda faqat qoidalar anglanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Niyozmetova R., Rafiyev A., Alavutdinova N. O'zbek tili: ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 2-sinfi uchun darslik. – Toshkent, – "Sharq" NMIU, 2007, – 128 b.
2. Muxitdinova X., Yusupova M., Ikromova N. O'zbek tili Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik. 2-nashri, – Toshkent: – "O'qituvchi" NMIU. 2010. – 128 b.
3. Толипова Р., Йўлдошева Ҳ. ва бошқ. – Ўзбек тили: Таълим рус тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг 5-синфи учун дарслик. 2 - нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, NMIU. 2002. – 176 б.
4. Йўлдошев Р.А. Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки уларни кўп гаптириш орқали ўстириш методикаси (Таълим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Тошкент: Fan va texnologiya Markazining bosmaxonasi, 2012, – 212 б.